

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹⁷⁴

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

O'ZBEKISTONNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA OLIMA AYOLLARNING ROLI

Berdiqulova Madina Zokir qizi,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

madinaberdiqulova02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda ilm-fan sohasida izlanishlar olib borayotgan xotin-qizlar uchun davlatimiz tomonidan yaratib berilgan shart-sharoitlar va qator qonunlar yoritib berilgan. Shuningdek, gender tenglikni saqlash va ayollarni yuqori lavozimlarda o'zini ko'rsatishi maqsadida rahbarlik vazifalari topshirilganligi statistik ma'lumotlar bilan keltirilgan.

Kalit so'zlar: olima ayollar, xotin-qizlar kuni, ilm-fan sohasi, ayol rahbarlar, xotin-qizlarning huquqlari, "Rahbar ayollar maktabi", Olima ayollar jamiyat.

Ayol — jamiyat gultoji, borliq ko'zgusi, millat tarbiyachisi. Uning mehr-muhabbati yosh avlodni, ertamiz egalarining unib-o'sishiga, kamol topishiga sabab bo'ladi. Ayol baxtli bo'lsa, jamiyat baxtli bo'ladi. Xotin-qizlarni e'zozlagan, qadrlagan yurtning esa buguni va ertasi shubhasiz farovondir. Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizni rivojlantirish, shuningdek, xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yuqori tashkilot va davlat organlarida ham ayollar rahbarlik qilayotgani bu kabi imkoniyatlardan keng foydalanilayotganidan darak beradi.

Har bir jamiyatning intellektual manzarasi haqida fikr yuritilganda, ilm-fanga munosabat, ilmiy g'oyalar va tadbiqotlar, erishilgan ilmiy natijalar ko'لامи muhim ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Zotan, mamlakatimiz iqtisodiyotining yuksalishi ilm-fan rivojiga bog'liq. Bu o'z navbatida, ilm-fan sohasida izlanishlar olib borayotgan xotin-qizlar zimmasiga ham alohida mas'uliyat yuklaydi. Olima ayollar tomonidan bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlar, sanoat, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-ma'rifiy va madaniy sohalarning rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilmoqda.

BMT Bosh Assambleysi tomonidan 2015-yil 22-dekabrda qabul qilingan "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovasiyalar" to'g'risida rezolyusiyada 11-fevral – Xalqaro ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar kuni deb e'lon qilingan. Ushbu qaror ayollar va qizlarning ilm-fan bilan to'laqonli foydalanishlariga teng sharoitlar yaratilishi, shuningdek xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadiga qaratildi. Yurtimizda xotin-qizlarning huquq-imkoniyatlarini kengaytirish, davlat boshqaruvi va jamiyatning barcha jarayonlarida ularning rolini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi gender tenglik sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiga aylangani ham hech birimizga sir emas. Davlat boshqaruvida ayollar vakillarini ko'paytirish uchun yetakchi lavozimlarni egallashga qodir 15 ming nafardan ortiq xotin-qizlardan kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Ularning boshqaruv lavozimidagi ulushi 33 foizga, tadbirkorlik sohasida 37 foizga, siyosiy partiyalarda 46 foizga, oliy ta'limda 49 foizga yetdi. Bugungi kunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 foizi, Senat a'zolarining 24 foizi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari deputatlarining 25 foizi ayollardan iborat. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Raisi, Qonunchilik palatasi Spikeri o'rribosari, Bosh vazir o'rribosari, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili, Bola huquqlari bo'yicha vakili, Oliy sud raisining birinchi o'rribosari, Bosh prokuror o'rribosari lavozimlarida ayol rahbarlar faoliyat yuritmoqda.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹⁷⁵

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

Barcha davlat organlari va tashkilotlari, ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan tashkilotlar hamda ularning tizimidagi tashkilotlar rahbarlarining kamida 1 nafar o‘rinbosarini xotin-qizlar orasidan tayinlash tizimi joriy etildi. Birgina respublika va mahalliy darajadagi ijro hokimiyati organlarining rahbarlik lavozimlarida 241 nafar xotin-qizlar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ularning 2 nafari rahbar (vazir, qo‘mita raisi), 9 nafari rahbar o‘rinbosari (vazir, rais va direktor o‘rinbosarlari), 14 nafari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimining o‘rinbosarlari, 5 nafari tuman(shahar) hokimi hamda 212 nafari tuman (shahar) hokimining o‘rinbosarlari lavozimida faoliyat yuritmoqda.

2022 yilda Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo‘yicha alohida “Rahbar ayollar maktabi” o‘quv kurslari tashkil etildi va har yili zaxiraga olingen xotin-qizlarning 100 nafarini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan “Rahbar ayollar maktabi” o‘quv dasturi asosida o‘qitilgan xotin-qizlarning lavozimlaridagi o‘zgarishlar doimiy ravishda tahlil etib borilmoqda. Xususan, bugungi kunda mazkur kursni muvaffaqiyatli tamomlagan 10 nafar xotin-qiz turli rahbarlik lavozimlariga tayinlangan. Shuningdek, “Rahbar ayollar maktabi” o‘quv dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan xotin-qizlarni ilg‘or xorijiy davlatlarga malaka oshirishga yuborish bo‘yicha tegishli ishlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda zaxiraga olingen xotin-qizlar orasidan “Rahbar ayollar maktabi” o‘quv dasturining navbatdagi mavsumi uchun tinglovchilar tarkibi shakllantirilmoqda.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi «Ma’rifat» targ‘ibotchilar jamiyati ayollarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ma’naviy olamini boyitish, qizlarni oilaga tayyorlash, ularni millat tarbiyachisiga aylantirish bo‘yicha qator loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, o‘tgan yil davomida professor, dosent ayollarning uslubiy qo‘llanmalari, ilmiy risolalari nashr ettirildi

Olima ayollar jamiyati va uning hududiy bo‘linmalari Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivolanish vazirligi hamda Oliy va O‘rtta maxsus ta’lim vazirligi, O‘zbekiston ixtirochi ayollar markazi nodavlat va notijorat tashkilotining takliflari asosida tashkil etilmoqda. Olima ayollar jamiyati tashkil etilishini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan marosimda so‘zlagan «Iloji boricha, ayollarimizning dardini, tashvishlarini sevinch yoshiga, g‘alaba yoshiga, muvaffaqiyat yoshiga, natija yoshiga aylantirishga hammamiz birgalikda harakat qilamiz. Bitta qiz farzandni o‘qitsangiz — butun oilani o‘qitgan bo‘lasiz deb ota-bobolarimiz beziz aytishmagan. Ilm-fan bilan shug‘ullanish, ilmiy yangilik yaratish — bu igna bilan quduq qazishga barobar. Men o‘zim shu sohadan chiqqanim uchun bu ishning naqadar qiyin va murakkab ekanini yaxshi bilaman. Shuning uchun ham oila tashvishlari va farzand tarbiyasini ilmiy tadqiqot bilan birga olib borayotgan, bu borada amaliy yutuq va natijalarga erishayotgan olima ayollarni shaxsan men chinakam matonat va jasorat sohibalari deb bilaman va yuksak qadrlayman», - nutqida e’lon qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq, bir oy o‘tib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Olima ayollar jamiyati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi qarori loyihasi e’lon qilindi. Jamiyat ijro organi apparati va uning hududiy bo‘linmalari xodimlari mehnatiga haq to‘lash, jamiyat asosiy vazifalarini bajarishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi davlat budgetidan Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasiga 50 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratilishi rejalashtirib qo‘yildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, kelajagimiz poydevori bo‘lgan yoshlarni tarbiyalab, barkamol avlodni voyaga yetkazayotgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularni har tomonlama himoya qilish, shuningdek, ularning mavqeini ham gender tenglik asosida ko‘tarish maqsadida

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹⁷⁶

30-OKTABR

ANDIJON,2024

yurtimizda davlatimiz rahbarining farmonlari va Oliy Majlis tomonidan chiqarilayotgan qonunlar katta ahamiyatga egadir va bu yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanish va mamlakatimiz rivojiga o‘z hissamizni qo‘shish bizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. „«Olima ayollar jamiyati» nimalar bilan shug‘ullanishi ma’lum bo‘ldi“. Kun.uz (2022-yil 8-aprel)
2. „Shavkat Mirziyoyevning 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o‘tkazilgan marosimda so‘zlagan nutqi“. Daryo.uz (2022-yil 7-mart).
3. „Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“. Uza.uz (2022-yil 10-mart).
4. Nodira Mustafayeva, tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘limi rahbari
- 5.<https://yuz.uz/uz/news/xotin-qizlarni-qollab-quvvatlash-ularning-jamiyat-hayotidagi-faol-ishtirokini-taminlash-tizimini-yanada-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida>
- 6.<https://aniq.uz/uz/yangiliklar/ayol-jamiyat-gultoji-borliq-kuzgusi-millat-tarbiyachisi>
- 7.<https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-ilm-fani-rivojida-xotin-qizlarning-ulushi-qay-darajada>